

**ABDULMALIK IBN MARVON DAVRIDA  
MOVAROUNNAHR VA XUROSON  
(XALIFALIK DAVRI HIJRIY 65-86 MILODIY 684—705 YILLAR)**

**Jurayev Sherzod Norovich**  
Oriental universiteti o‘qituvchisi

**Islomova Mushtariy Azizjon qizi**  
Oriental universiteti iqtidorli talabasi

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola arab xalifalaridan biri Abdulmalik ibn Marvon davrida Kesh va Termiz bilan bog‘liq tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** Abdulmalik ibn Marvon, Bujayr ibn Varqo, Termiz, Kesh, Xorazm

Arab xalifaligining Mavorounnahr fathi haqida gap ketganda, ayrim ziyoliylar shu darajada bo‘rttirib ma’lumot berishadiki, bu fathlar go‘yo saodat asridek bo‘lgan yoki ayrim tarixchi olimlar esa bosqinchilik deb ta’rif berib shu darajada dahshatli tus berishadiki, o‘quvchida salbiy fikr shakllanadi. Xolisona baho berish uchun yozilgan manbalarni qiyosiy tahlil qilib xolis fikr berish mumkin.

Xuroson voliysi Abdulloh ibn Hozim 691 yili tamim qabilasi tomonidan o‘ldirilganidan so‘ng Bukayr ibn Vishoh Xurosonga voliy etib tayinlandi. Nazar solsak tamim qabilasi o‘z sarkardasini o‘ldirmoqda. U bu vazifada ikki yil ishladi. So‘ng Bukayr ibn Varqo bilan kelisha olmaganidan Xuroson aholisining aslzodalari va fozil kishilari Abdulmalikka xat yozib, undan quraysh qabilasiga mansub kishini Xuroson noibi etib tayinlashini so‘radilar<sup>1</sup>. Xalifa Abdulmalik 693-yili Umayya ibn Abdullohni Xuroson noibi etib tayinladi. Umayya ibn Abdulloh Xuroson poytaxti Marvga kelib, Bukayr ibn Vishoh va uning omillariga tegmadi va unga mirshablar boshlig‘i lavozimini taklif etdi. Bukayr buni rad etdi va bu lavozimga Bujayr ibn Varqo tayinlandi. Keyin Umayya Bukayrga: “O‘zing xohlagan viloyatni tanla”, dedi. Bukayr Toxaristonni tanladi. Keyin Umayya ibn Abdulloh Buxoroga yurish qilishga, undan keyin esa Muso ibn Abdulloh ibn Xozim oldiga Termizga borishga qaror qildi. Lekin Bujayr Umayyaga Bukayr qo‘sish bilan Toxaristonga ketsa, u yerda isyon ko‘tarishini aytди. Shundan keyin Umayya Bukayni Movarounnahr yurishiga safarbar qildi.

<sup>1</sup> Al-Balazuriy. Futuh al-buldon, Xurosonning fath etilishi // So‘zboshi, arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi Sh.S.Kamoliddin. – Toshkent: OOO “Extremum-press”, 2017. – B. 30.

Umayya o‘zining o‘rniga Marvda o‘g‘li Ziyodni hokim qilib qoldirdi va Buxoroga yurish qilish uchun yo‘lga chiqdi. Bukayr ham birga edi. Ular Amudaryodan kechib o‘tganda, Umayya Bukayrga: “O‘g‘lim hali yosh, u Marvdagi boshqaruv ishlarini uddalashiga ko‘zim yetmayapti. Yaxshisi sen Marvga qaytib borib, unga yordam ber. Men uni senga ishonib topshirdim”, dedi. Bukayr qaytib daryodan kechib o‘tdi, Umayya esa Buxoroga yo‘l oldi. Bukayr daryo bo‘yidagi qayiqlarni yoqib yubordi, keyin Marvga kelib, Ziyodni hibsga oldi va odamlarni Umayyaga qarshi bosh ko‘tarishga chaqirdi. Marvdagi arablar va musulmonlar unga qo‘shildilar<sup>1</sup>

Umayya Bukayrning xiyonati haqida eshitganda, Buxoro ahli bilan arzimagan pulga sulh tuzdi va Amudaryoning bo‘yiga qaytib, yangi qayiqlar yasashni buyurdi. Keyin daryodan kechib o‘tib, Marvga keldi va Bukayrni qamal qildi. Ular o‘rtasida bir necha janglar bo‘lib o‘tdi. Umayya bilan birga yurishga ketgan arablarning oilalari Marvda edi. Bukayr ularni garovga olib, o‘zining himoyasi uchun foydalandi. Shuning uchun Umayya u bilan sulh tuzishga va unga omonlik kafolatini berishga majbur bo‘ldi. Sulhga ko‘ra, Umayya Bukayrga 400 ming dirham, odamlariga esa sovg‘a-salomlar berishi, o‘ziga istagan viloyatni boshqaruv uchun berishi, Bujayrning so‘zlariga qulq solmasligi va 40 kun davomida Marvdan chiqib ketishi uchun omonlik kafolatini berishi lozim edi. Umayya xalifa Abdulmalik ibn Marvondan Bukayr uchun omonlik kafolatini oldi va Sinjon darvozasi yonida Bukayrga tilxat yozib berdi. Shundan keyin Bukayr Umayyya bilan birga kelgan arablarni Marvga kiritdi. Umayya shundan keyin ham Bukayrning uni taxtdan ag‘darishga harakat qilayotgani haqida xabar topdi. So‘ng uni qo‘lga olish va qamoqqa tashlash haqida buyruq berdi. Lekin Bujayr ibn Varqo uni o‘ldirdi.<sup>2</sup>

Umayya ibn Abdulloh 697-yili Termizga Muso ibn Abdullohga qarshi qo‘shin yubordi. Lekin u mag‘lubiyatga uchrab, askarlarining bir qismi Muso ibn Abdullohga qo‘shildi, qolganlari esa Marvga qaytib keldi. Keyin Umayyaning o‘zi qo‘shin bilan Movarounnahrga yurish qilish uchun yo‘lga chiqdi. U Amudaryoni kechib o‘tganda, turklar va sug‘dlar qurshovida qoldi. Arablar bas kela olmasdan ulardan zo‘rg‘a qochib qutuldilar. 697 yili Iroq voliysi Hajjoj ibn Yusuf Xurosonga Muhallab ibn Abu Sufrani noib etib tayinladi va u 698 yili Umayya ibn Abdullohning o‘rniga Xurosonga keldi.

Muhallab ibn Abu Sufra o‘z ishini Movarounnahr shaharlarini fath qilishdan boshladi. U 699 yili 5 ming kishilik qo‘shin bilan Amudaryodan o‘tib, Kesh shahrini qamal qildi. Kesh yonida turganda oldiga Xuttal<sup>3</sup>hukmdori amakisining o‘g‘li kelib,

<sup>1</sup> Al-Balazuriy. Futuh al-buldon, Xurosionning fath etilishi // So‘zboshi, arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi Sh.S.Kamoliddin. – Toshkent: OOO “Extremum-press”, 2017. – B. 220.

<sup>2</sup> al-Balozuriy – Abul-Abbos Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir al-Balozuriy. Futuh al-buldon / Abdulloh Anis at-Tabbo va Umar Anis

at-Tabbo nashri. – Bayrut: Mu’assasat al-ma‘orif, 1987. – B.586.

<sup>3</sup> O‘rta asrlarda Xuttal yoki Xuttalon deb atalgan ushbu shahar bugungi kunda Tojikistonning Qo‘rg‘ontepa va Ko‘lob

uni Xuttalga qarshi yurish qilishga taklif etdi. Shunda Muhallab unga qo'shib o'g'li Yazid ibn Muhallabni yubordi. Ular ikki qo'shin bo'lib, Xuttalga keldilar. Biriga Yazid ibn Muhallab, ikkinchisiga Xuttal hukmdori Sablning amakivachchasi boshchilik qildi. Kech kirganda Sabl qal'asidan chiqib, amakisining o'g'li bilan turgan qo'shinga hujum qildi va uni asirga olib, qal'asiga olib ketdi va o'lindi. Yazid ibn Muhallab Sablning qal'asini qurshab oldi. Keyin ular Yazid bilan sulh tuzdilar. Shundan keyin Yazid otasi Muhallabning oldiga qaytib keldi.<sup>1</sup>

Muhallab Kesh qal'asini ikki yil qamal qildi, lekin uni kuch bilan ololmadi. 701 yili Kesh hukmdori bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi va Balxga qaytdi. Bu orada u boshqa yerlarga, jumladan, Oxarunga ham yurish qildi. O'sha vaqtida Termiz shahri xalifaga qarshi bosh ko'targan Muso ibn Abdullohning qo'lida edi. Muhallab unga qarshi yurish qilmadi va o'g'illariga ham unga tegmaslikni buyurdi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Muhallab Kesh qal'asini qamal qilib turganda, Muso ibn Abdulloh uning oldiga borgan. Muhallab unga Termizga qaytishini va u yerlarni qo'lga olib turishini buyurgan. 702-yili Muhallab ibn Abu Sufra vafot etdi. Uning vafotidan so'ng o'g'li Yazid ibn Muhallab Xuroson noibi bo'ldi. O'sha yili Hajjoj ham uni Xuroson noibi etib tayinlanganini tasdiqladi. Yazid Xurosonda ikki yildan ko'proq vaqt davomida noiblik qildi<sup>2</sup>. 702 yili Sijistondan Abdurahmon ibn Iyyosh boshchiligidagi isyonchilar Xurosonga yurish qildi. Yazid ibn Muhallab ularni mag'lubiyatga uchratdi va ko'pchilagini asir oldi. So'ng barcha asirlarni Hajjojga yubordi.

703 yili Yazid ibn Muhallab Xurosondagi Bodg'is<sup>3</sup> viloyatiga hujum qilib uni sulh yo'li bilan egalladi. Uning hukmdori Nizak sulh shartlariga ko'ra qal'adagi hamma mol-mulklarni Yazidga topshirib, oilasi bilan qal'ani tark etishga rozi bo'ldi.

704 yilda Iroq voliysi Hajjoj ibn Yusuf Yazid ibn Muhallabga maktub yozib, Xorazmga yurish qilishni buyurdi. U esa: "Ey amir! Xorazmda o'lja kam, u yerga qishda yurish qilish qiyin" deb javob berdi. Shunda Hajjoj unga: "o'rningga biror odamni qoldirib, o'zing bu yoqqa kel" dedi. Shundan keyin Yazid: "Mayli men Xorazmga yurish qilaman" dedi. Lekin Hajjoj unga rad javobini berdi. Yazid unga qulq solmasdan Xorazmga yo'l oldi. Xorazm ahli u bilan sulh tuzdilar. Yazid u yerdan sulh shartlarida ko'rsatilgan asirlarni olib, qish bo'lsa ham orqaga qaytdi. Yo'lida qattiq sovuq boshlandi. Arablar asirlardan kiyimlarini tortib oldilar, asirlar esa sovuqdan halok bo'ldilar<sup>4</sup>

viloyatlari hududida joylashgan.

<sup>1</sup> Tabariy. Tarixi Tabariy 3 juz. – Bayrut: darul-kutub al-ilmiyya, 1997. – B. 616.

<sup>2</sup> Al-Balazuriy. Futuh al-buldon, Xurosonning fath etilishi // So'zboshi, arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va ko'rsatkichlar mualifi Sh.S.Kamoliddin. – Toshkent: OOO "Extremum-press", 2017. – B. 228

<sup>3</sup> Afg'onistonning shimoli-g`arbiy qismida Harot va Marv ar-Rud orasida joylashgan viloyat.

<sup>4</sup> Tabariy. Tarixi Tabariy 3 juz. – Bayrut: darul-kutub al-ilmiyya, 1997. – B. 656.

Yazid ibn Muhallab Xurosonga qaytganidan so‘ng Xuroson noibligidan bo‘shatildi. Uning o‘rniga ukasi Mufaddal noib bo‘ldi. U yetti oy noiblik qildi. Shu vaqt davomida Muso ibn Abdulloh egallab turgan Termiz qal’asiga yurish qilib, uni egalladi. Biroq u otasining nasihatiga itoat qilmay xatoga yo‘l qo‘ygan edi. Termiz egallanganidan so‘ng ko‘p o‘tmay Mufaddal noiblikdan bo‘shatilib, Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi etib tayinlandi.

Xuroson voliysi Abdulloh ibn Xozim (683-691 yillarda hukm surgan) Abdulmalik ibn Marvonga bo‘ysunishni istamadi. Shundan keyin u o‘g‘li Musoga o‘z mol-mulkini topshirib, Movarounnahrdagi biror podshohning saroyida panoh topishni yoki u yerda biror mustahkam qal’a topib, o‘sha yerda qolishni buyurdi. Muso 400 ga yaqin askar bilan 690 yili Amudaryoni kechib o‘tdi. Dastlab u Buxoroga borib, uning hukmdoridan panoh so‘radi. Lekin Buxoro hukmdori undan xavfsirab, shaharga kirishiga yo‘l qo‘ymadi, lekin unga pul, otlar va kiyim-kechaklar yubordi. Keyin Muso o‘ziga mustahkam qal’a qidirib, Samarcandga bordi. Samarcand hukmdori Tarxun Muso va uning odamlariga omonlik kafolati berib, shaharda qolishiga ruxsat berdi. Arablar Samarcanda qolib, u yerda biroz vaqt yashadilar. Sug‘dliklarning bir odatiga ko‘ra, har yilning ma’lum kunida maydonda dasturxon yozilib, unga yog‘li go‘sht, non va sharob qo‘yilar edi. Bu dasturxon eng kuchli sarkarda uchun maxsus yozilar, undan boshqa hech kim o‘sha kuni bu taomlarga qo‘l tekkiza olmas edi. Kimda-kim bu dasturxonga qo‘l uzatsa, o‘sha sarkardani jangga chaqirgan bo‘lar edi. Yakkama-yakka jang qilganda, kim g‘olib bo‘lsa, dasturxon o‘shaniki bo‘lar edi. Musoning sheriklaridan biri o‘sha sarkarda bilan jang qilmoqchi bo‘ldi va unga atab yozilgan dasturxonagi taomlarni yeb qo‘ydi. Sug‘d sarkardasi g‘azablanib, uni jangga chaqirdi. Musoning sherigi u bilan yakkama-yakka jang qilib, uni o‘ldirdi. Sug‘d hukmdori arablarlarga “Men sizlarga panoh berdim, hurmat-izzat qildim, sizlar esa Sug‘d sarkardasini o‘ldirdinglar. Agar men sizlarga omonlik kafolatini bermaganimda, hammangizni qirib tashlagan bo‘lar edim. Mening yerimni tark eting”, dedi. Shundan keyin Muso Samarcandan chiqib ketdi. Muso Samarcandni tark etib, Keshga bordi. Kesh esa, Tarxunga tobe shahar edi. Kesh hukmdori Tarxunga maktub yozib, undan yordam so‘radi. Tarxun Keshga yetib keldi. Muso unga qarshi chiqdi va kechgacha jang qilib, ko‘p odamlarini yo‘qotdi. Tong otgandan keyin, Tarxunga odam yuborib, u bilan muzokara olib bordi. Shundan keyin Tarxun Musoni ta’qib qilmadi va Keshni tark etishiga yo‘l ochib berdi. Muso Termizga yo‘l oldi. Termiz mustahkam qal’ali shahar edi. Muso Termizga kelib, avval shahar tashqarisida yashovchi bir dehqon<sup>1</sup> uyida to‘xtadi. Dehqon Musoga shahar hukmdori Termizshoh haqida: “Termizshoh juda ham mag‘rur odam va o‘zining sha’nini juda hurmat qiladi. Agar sen unga sovg‘a-

<sup>1</sup> Ilk o‘rta asrlarda Dehqon atamasi mulkdor, qishloq hokimi ma’nolarini anglatgan

salomlar berib, iltifot qilsang, u seni o‘zining qal’asiga kiritadi”, dedi. Muso uning aytganini qilib, Termizshohga sovg‘a-salomlar yubordi va unga ko‘p iltifotlar ko‘rsata boshladi. Ular orasida yaxshi munosabatlar o‘rnatildi. Termizshoh qal’adan chiqib, Muso bilan birga ov qildi. Keyin u Musoni yuz nafar sheriklari bilan qal’a ichida mehmon bo‘lishga taklif qildi. Muso ibn Abdulloh shijoatli askarlaridan yuz nafarini tanlab, Termiz qal’asiga keldi. Ziyofatdan so‘ng Muso Termiz hokimining qasrida yonboshlab yotar ekan, xayolidan shunday so‘zlarni o‘tkazdi: “Allohga qasamki, o‘rnimdan turganimda bu joy mening qarorgohim yoki qabrim bo‘lishi tayin”. Shundan so‘ng u termizliklarga hujum qildi. Orada qattiq jang boshlanib, termizliklarning ko‘plari halok bo‘ldi. Omon qolganlari esa boshqa viloyatlarga qochib ketdi. Muso shaharni qo‘lga olib, Termizshohga: “Sen shaharni tark etsang, men sen bilan odamlaringga qarshilik qilmayman”, dedi. Ular Termizdan ketib, shaharlarini qaytarib olish uchun turklardan yordam so‘radi. Biroq turklar yordam berishdan bosh tortdi. Shunday qilib, Muso odamlari bilan Termizni egallab oldi. 691-yili Musoning otasi Abdulloh ibn Xozim Xurosonda halok bo‘lgandan keyin uning tarafdarlari Termizga kelib, Musoga qo‘sildi. Shundan so‘ng Musoning kuchlari ko‘payib, atrofdagi yerlarga yurishlar qila boshladi.<sup>1</sup>

697-yili Xuroson volysi Umayya ibn Abdulloh Termizga katta qo‘sishin yubordi. Termiz ahli Xurosondan kelgan arablar bilan ittifoq tuzib, Musoga qarshi birga kurashdilar. Ular Termizni ikki yoki uch oy davomida qamal qildilar. Bir kuni kechasi Muso 400 nafar askari bilan qal’adan chiqib, turklarga to‘satdan hujum qildi va ularni mag‘lubiyatga uchratib, qurol-yaroqlari va mol-mulkalarini qo‘lga kiritdi. Shundan keyin Musoning sheriklaridan biri hiyla ishlatib, Umayya qo‘shiniga o‘zini Musodan qochgani qochoq deb ko‘rsatdi va payt poylab ularning lashkarboshisini o‘ldirdi. Shundan so‘ng uning qo‘smini tarqalib ketdi. Askarlarning bir qismi Musodan panoh so‘rab, unga qo‘sildi, qolganlari esa daryodan kechib o‘tib, Umayyaning oldiga Marvga qaytib ketdi<sup>2</sup>

Muhallab ibn Abu Sufra (697 – 702 yillarda hukm surgan) va uning o‘g‘li Yazid ibn al-Muhallab (701 – 704 yillarda hukm surgan) davrida Muso ibn Abdullohga qarshi hech qanday qo‘sishin yuborilmadi. Chunki Muhallab o‘g‘illariga “Musodan ehtiyot bo‘ling. Agar u o‘ldirilsa, sizlarning o‘rningizga boshqa odam noib bo‘lib keladi”, deb uqtirgan edi.<sup>3</sup>

Xalifaga qarshi Sijistonda bosh ko‘targan Ibn al-Ash’asning tarafdarlari 703 yili Termizga borib, Musoga qo‘sildilar. Bundan tashqari umaviylar siyosatidan norozi

<sup>1</sup> Abdurahmon ibn Xaldun. Tarixi ibn Xaldun 3-juz. – Bayrut: Darul-kutub al-ilmiyya, 2010. – B.55

<sup>2</sup> Al-Balazuriy. Futuh al-buldon, Xurosonning fath etilishi // So‘zboshi, arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi Sh.S.Kamoliddin. – Toshkent: OOO “Extremum-press”, 2017. – B. 238.

<sup>3</sup> O’sha asar . – B. 242.

kuchlar ham Termizga, Muso ibn Abdullohning oldiga kelib qo'shilar edi. Shunday qilib, Muso atrofidagi arab askarlarining soni 8 mingga yetdi. Ular tobora kuchayib, Mavarounnahrdan Yazid ibn Muhallab omillarini haydab chiqardilar va ularning o'rniga o'zlarining omillarini qo'ydilar. Natijada yig'iladigan soliqlar Musoning huzuriga olib kelinadigan bo'ldi. 704-yili Termizda o'rnashib olgan Muso ibn Abdulloh va uning tarafdarlariga qarshi eftaliylar, tibetliklar va turklardan iborat katta qo'shin hujum qildi. Ushbu ma'lumotga tayanib aytish mumkinki, Termiz shahrining mahalliy aholisi eftaliylar va turklardan iborat bo'lgan. Tibetliklar esa arablarga qarshi kurashda yordam berish uchun chaqirilgan. Muso 300 ta piyoda va 30 ta otliq bilan shahardan chiqib kursiga o'tirdi va musulmonlar olib borgan jangni boshqarib o'tirdi. Muso qo'shini bilan birlashgan kuchlar o'rtasida bir necha kun janglar bo'ldi. Arablar mahalliy kuchlarga to'xtovsiz hujumlar qilib, oxiri ularni mag'lubiyatga uchratdilar.<sup>1</sup>

Muso ibn Abdulloh Termiz shahrida 15 yil turib butun Mavarounnahrni o'z tasarrufida ushladi. U bilan hech kim raqobatlasha olmas edi.

### Termiz qamali

Yazid ibn Muhallabdan keyin uning ukasi Mufaddal ibn Muhallab Xurosonga voliy bo'ldi. Muhallab ibn Abu Sufra o'g'illariga "Musodan ehtiyyot bo'linglar! U Xurosonda ekan, sizlar ham voliy bo'lib qolasizlar, u ketishi bilan o'rningizga Xurosonga boshqa odam voliy bo'lib keladi", deb uqtirgan edi. Shuning uchun Yazid ibn Muhallab Musoga qarshi yurish qilmadi. Mufaddal ibn Muhallab otasining uqtirgan ko'rsatmasiga qaramasdan o'zini xalifaga yaxshi ko'rsatish uchun Musoga qarshi yurish boshlashga qaror qildi.

Mufaddal Usmon ibn Mas'ud boshchiligidagi 15 ming kishilik qo'shinni Termizga yubordi. Mufaddalning ukasi Mudrik ibn Muhallab ham Balxdan qo'shini bilan kelib, unga qo'shildi. Usmon Samarqand hukmdori Tarxunga va Xuttalon hukmdori Sablga chopar yuborib, ularni yordamga chaqirdi. Ular ham sug'dlar va turklardan iborat qo'shin bilan yetib keldilar. Usmon qo'shini bilan Jayhun daryosidagi bir orolga kelib joylashdi. So'ng Termiz qal'asini qamal qildi. Qamal ikki oy davom etdi. Muso shu ikki oy davomida og'ir holatda qamalda qoldi. Usmon kechayu-kunduz hush'yorlikni yo'qotmasdan, Musoning tunda hujum qilishiga imkon bermadi. Ilojsiz qolgan Muso qal'adan chiqib, jang qilishga qaror qildi. Muso qal'adan chiqib, bir qism askarini Usmonga qarshi saf torttirib qo'ydi, o'zi esa Tarxun boshchiligidagi turklar qo'shingga hujum qildi. Sug'dlar va turklar jangda mag'lubiyatga uchratdilar. Musoning askarlari ulardan qolgan narsalarni qo'lga kiritib, qal'aga tashiy boshladilar. Keyin sug'dlar va turklar orqaga qaytib, Muso bilan qal'aning o'rtasiga turib, uning orqaga yo'lini to'sdilar. Bu orada Usmon ham unga hujum boshladidi. Bo'lib o'tgan shiddatli jangda

<sup>1</sup> O'sha asar. – B. 241.

Muso o‘ldirildi. Musoning tarafдорлари har томонга тумтарақай qochdi, ayrimлари esa asirga olindi. Ularni birma-bir Usmonning oldiga olib keltirib, qatl etdilar. Shundan so‘ng Termiz shahri egallandi. Musoning o‘limi 704 yilning oxirlarida yuz berdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Al-Balazuriy. Futuh al-buldon, Xurosonning fath etilishi // So‘zboshi, arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi Sh.S.Kamoliddin. – Toshkent: OOO “Extremum-press”, 2017. – B. 30.
2. Al-Balozuriy – Abul-Abbos Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir al-Balozuriy. Futuh al-buldon / Abdulloh Anis at-Tabbo va Umar Anis at-Tabbo nashri. – Bayrut: Mu’assasat al-ma’orif, 1987. – B.586.
3. Tabariy. Tarixi Tabariy 3 juz. – Bayrut: darul-kutub al-ilmiyya, 1997. – B. 616.
4. Abdurahmon ibn Xaldun. Tarixi ibn Xaldun 3-juz. – Bayrut: Darul-kutub al-ilmiyya, 2010. – B.55